

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18132854>

QISHLOQ HUDUDLARIDA BANDLIKNI OSHIRISHDA ISTE'MOL KOOPERATSIYASINING ROLI

Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna

Qoraqolpoq davlat universiteti

“Iqtisodiyot va turizm” kafedrası assistenti

Annotasiya. Mazkur maqolada qishloq joylarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning dolzarb masalalari hamda ularni hal etishda istemol kooperatsiyasining o'rni va ahamiyati tadqiq etilgan. Qishloq hududlarida bandlikni taminlashda ishsizlikni kamaytirish, aholi daromadlarini oshirish vva kambag'allik darajasini pasaytirishda kooperativ shakllarni rivojlantirishning institutsional mexanizmlari yoritilgan. shuningdek, kooperatsiya so'zining kelib chiqishi, Chayanovning kooperativga oid nazariyasi va qishloq joylaridagi bandlik va tadbirkorlikni rag'batlantirishdagi roli bayon etilgan. Kooperativlar, ayniqsa, iqtisodiy inqiroz va kam rivojlangan hududlarda barqaror ish bilan ta'minlash, daromad olish, xizmatlar va tovarlarni yetkazib berish imkoniyatlarini yaratadi.

Kalit so'zlar: qishloq joylari, iste'mol kooperatsiyasi, bandlik, ishsizlik, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, kooperativ tizim, kambag'allikni kamaytirish, barqaror rivojlanish.

I.KIRISH

Bugungi rivojlanish tendensiyasi sharoitida qishloq joylarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish muammolarini hal etish bo'yicha strategik vazifani iste'mol kooperatsiyasi tizimi orqali hal etish mumkin. Bu vazifani amalga oshirish xo'jalik yuritishning kichik shakllarini rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish, qishloqda ishsizlikni kamaytirish, o'rta sinfni shakllantirish, kambag'allikni pasaytirishga xizmat qiladi.

“Shu bilan birga, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, kooperatsiya qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini barqaror rivojlantirish, ayniqsa, qishloq joylarini barqaror rivojlantirishni ta'minlashning asosi hisoblanadi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida qishloq iqtisodiyotida kooperatsiya sektorining ulushi 40% ni tashkil qiladi. Finlyandiyada bu ko'rsatkich 74% ga yetadi. Kooperativ shakllarini rivojlantirish bo'yicha ikkinchi o'rin Niderlandiyaga tegishli bo'lib, uning ulushi 68% ni tashkil qiladi. Fransiya va Germaniya ushbu reytingda oltinchi va o'ninchi o'rinlarni egallab, qishloq xo'jaligidagi kooperativ sektorning ulushi 57% va 46% ni tashkil qiladi”⁷¹. Nazariy jihatdan kooperativlar besh xil usulda bandlikni yaratishi mumkin (1-rasm). [1].

⁷¹ Yanbykh RG (2017) Development trends of agricultural consumer cooperatives in Russia. Agric Econ Russia 11:77–83

Ish joyi sifatida

Ish beruvchi sifatida

O'zini o'zi band qilish

Qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish

Yondosh ish o'rinlarini yaratish

1-rasm. Kooperativlarning bandlikni yaratish yo'nalishlari

Kooperativlar umumiy ish joyi sifatida kooperativ a'zolari qo'shma ishlab chiqarish bo'linmasida birgalikda ishlashlari. Boshqacha qilib aytganda, a'zolar kooperativ jamiyatini birinchi navbatda "uyushgan o'z-o'zini ish bilan ta'minlash" shakli sifatida tuzadi.

Kooperativlar ish beruvchi sifatida masalan, do'kondorlar, kassirlar va do'konlarda xizmat ko'rsatadigan iste'mol kooperativini keltirishimiz mumkin. Ish bilan ta'minlashning bunday ta'iri ko'pincha diversifikatsiya orqali, ya'ni kooperativlar o'zlarining asosiy faoliyatidan tashqari faoliyat turlariga diversifikatsiya qilinganda kuchayadi. O'z-o'zini ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi yoki qo'lab-quvvatlovchi kooperativlar bu mijozga qarashli kooperativlar o'z a'zolarining bizneslari yoki uy xo'jaliklarini kuchaytirganda amalga oshiriladi. Oddiy misol, qishloq xo'jaligini sotish va ta'minot kooperativi bo'lib, u mustaqil dehqonlarga ishlab chiqarishdan oldingi va keyingi muhim xizmatlarni taqdim etadi. Qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish. Ish o'rinlari kooperativlarning mavjudligi tufayli yaratiladi. Bunga davlat kooperativ bo'limlari, kooperativ ta'lim muassasalari va kooperativ audit kompaniyalari kiradi. [2]. Yondosh ish o'rinlarini yaratishda boshqa biznes kabi, kooperativ ham o'zi bilan tijorat aloqalarini o'rnatgan korxonalarda ish o'rinlarini yaratadi. Masalan, uy-joy kooperativi qurilish materiallari sanoatida ish o'rinlarini yaratishi mumkin.

II. ADABIYOTLAR SHARHI

Yangi O'zbekistonda qishloqlarda doimiy aholi o'rtasidagi ishsizlikning oshib borishiga ko'p sabablar ta'sir ko'rsatdi. Ulardan biri, bizningcha, asosiy masalaga aylangan mehnatga layoqatli aholi bandligi muammosidir. Ko'pchilik olim va mutaxassislarining fikricha, kooperatsiya bu muammoni qisman hal qila oladi.

L.A.Ovchintseva tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, "kichik qishloq ishlab chiqaruvchilari o'rtasidagi kooperatsiya ularning faoliyatiga katta foyda keltira oladi". D.V.Eninaning va Ivanova N.Yu. tadqiqotlariga ko'ra, "iste'mol kooperatsiyasi kichik qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari, birinchi navbatda, shaxsiy tomorqa egalari salohiyatini ochishga yordam beradi" Iqtisodiy adabiyotlarda "kooperatsiya" tushunchasi turli talqinlarga ega. Olim, iqtisodchi va agrar A.V.Chayanov kooperatsiyani korxona, uning tashkiliy-iqtisodiy shakllari, ijtimoiy harakat jarayoni sifatida qaragan. U kichik boshqaruv shakllari kooperatsiya tufayli yirik qishloq xo'jaligi tashkilotlari bilan raqobatlasha olishini ta'kidladi. "Kooperatsiya" so'zi lotin tilidan olingan. U ikkita so'zdan iborat - co (cum) - birgalikda va opus (operis) – ish degan ma'noni anglatadi. Shunday qilib, u birgalikdagi faoliyatni tashkil etish sifatida belgilanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda "kooperatsiya" tushunchasi turli talqinlarga ega. Uning ta'kidlashicha, kichik boshqaruv shakllari kooperatsiya tufayli yirik qishloq xo'jaligi tashkilotlari bilan raqobatlasha oladi⁷².

Mahalliy ilmiy manbalar, masalan, Boymatov X. tomonidan yozilgan maqolada qishloq xo'jaligi kooperativlarining bozor iqtisodiyotidagi roli va qishloq hududlarida bandlik hamda iqtisodiy faollikni oshirish haqida tahlil keltirilgan. Bu manba kooperativlarning iqtisodiy tizimdagi o'rni va qishloq aholisining farovonligiga ta'sirini o'rganadi. [3].

Yana shu borada tadqiqotlarni amalga oshirgan olimlar Mavlonova, S.,

Sh. Amirqulov. Abdurahmonov, Q. va boshqalar mavzu bo'yicha milliy tajriba va qo'llanilayotgan amaliy mexanizmlarni yoritadi.

Xorijiy tadqiqotlar, masalan, Hindiston va Qozog'iston tajribasi, qishloq iste'mol kooperatsiyalarining aholi bandligi va iqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Milliy adabiyotlar kooperativlar amaliyotini, ularning ijtimoiy va iqtisodiy ta'sirini, davlat siyosati bilan uyg'unligini yoritadi.

III. METODOLOGIYA

Mazkur maqolada qishloq joylarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda va bandlikni oshirishda, istemol kooperatsiyasining rolini o'rganishda:

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish usuli:

-Mahalliy va xorijiy olimlar (A.V. Chayanov, L.A. Ovchintseva, D.V. Enina va boshqalar) qarashlari o'rganilgan;

-Kooperatsiya va bandlik masalalariga oid nazariy yondashuvlar umumlashtirilgan.

Taqqoslash usuli

-Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Finlyandiya, Niderlandiya, Germaniya va Fransiyadagi kooperativ sektor ulushi bilan O'zbekiston sharoiti solishtirilgan;

-Xalqaro va milliy tajriba qiyosiy tahlil qilingan.

⁷²Chayanov AV (1989) On agricultural cooperation: selected chapters and articles. Volga Book Publishing House, Saratov

IV. TAHLIL VA NATIJALAR

Kooperativlar "jahon iqtisodiyotida 1895-yildan beri faoliyat yuritib kelishadi. Hozirgi kunda jahonning 12% aholisi u yoki bu 3 mln kooperativning a'zosi hisoblanadi. Ular yana qo'shimcha 10% aholini ish bilan ta'minlash imkoniyati bor. Dunyoning 300 ta eng yirik kooperativlari 2409,41 mlrd AQSh dollari qiymatda mahsulot yaratmoqda. Ularning 105 tasi yoki 35,0% qishloq xo'jaligi tarmog'ida faoliyat olib bormoqda. Janubiy Koreyaning Nonghyup koopertivi jahonda eng yirik kooperativ hisoblanib, 61,17 mlrd AQSh dollari qiymatida mahsulot ishlab chiqarib, 27865 kishi mehnat qiladi. Hindistonning IFFCO kooperativi esa, jahonda har bir ishchi hisobiga eng ko'p qiymat yaratib kelmoqda – 3,3 mln AQSh dollari⁷³.

Kooperativlar nimalarni rag'batlantiradi:

-ish bilan ta'minlash, daromad olish va tovarlar va xizmatlarning mavjudligini oshirish imkoniyatini yaratadi, bularning barchasi iqtisodiy o'sishga yordam beradi.

-ishlash va raqobatbardoshlikni rag'batlantirish, ularning a'zolari ham foyda oluvchilardir. [4].

Aksariyat mamlakatlarda kooperativlarning asosiy qismi qishloq joylarda faoliyat yuritadi. "Barqaror energiya kooperativlari tez kengaymoqda, Kanada, Daniya, Hindiston va Buyuk Britaniyada shamol energetikasi kooperativlari, Braziliya va Meksikada fotoelektr kooperativlari yildan yilga oshib bormoqda"⁷⁴. Kooperativlar inqirozlarga chidamli hisoblanadi. Bunda aholi iqtisodiy inqirozlarda doimiy faoliyatidan daromad olib turish, birlashish orqali inqirozdan chiqish yo'llarini tezlikda amalga oshirish imkoniyati oshadi. [5]. Kooperativ jamiyat - demokratik yo'l bilan boshqariladigan tashkilotni tashkil etish orqali umumiy maqsadga erishish uchun ixtiyoriy ravishda birlashgan, talab qilinadigan kapitalga teng hissa qo'shadigan va korxonaning xavf va foydalarining adolatli ulushini o'z zimmasiga olgan shaxslar birlashmasidir. Ushbu ta'rif ro'yxatdan o'tgan kooperativlarga qaraganda kamroq "rasmiy" bo'lgan guruhlar va birlashmalarni ham qamrab oladi, agar bu guruhlar demokratik tamoyillarga asoslangan bo'lsa va iqtisodiy maqsadni ko'zlaydi. Boshqa tomondan, ta'rif kooperativlar va kapitalga asoslangan korxonalar, jamoat tashkilotlari va NNTlar o'rtasida aniq chegara chizadi (garchi kooperativlar va NNTlar ma'lum umumiy xususiyatlarga ega bo'lsa ham). Shuni ta'kidlash kerakki, ko'pchilik kooperativlar bandlikka ko'maklashish vositasi emas, balki o'z a'zolariga iqtisodiy xizmatlar ko'rsatadigan korxonalardir. Shunga qaramay, "kooperativ korxonalar insoniyatning katta qismi samarali bandlikni yaratish, qashshoqlikni bartaraf etish va ijtimoiy integratsiyaga erishish vazifalarini o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan tashkiliy vositalarni taqdim etadi". Hozirgi vaqtda qishloqda ishsizlik barqaror bo'lib qoldi, bu esa ijtimoiy xavfli hodisalarga (alkogolizm, jinoyatchilik, mehnat malakasini yo'qotish) olib keladi.

Bu muammolarni hal etish, qishloq daromadlarini oshirish uchun qishloq aholisining tadbirkorlik faolligini rag'batlantirish zarur. Bizning fikrimizcha,

⁷³ International Cooperative Alliance _ ICA ma'lumotlari

⁷⁴ Facts and figures. International Cooperatives Alliance. <https://ica.coop/>

tadbirkorlikning bunday shakli uy xo'jaliklari va iste'mol kooperatsiyasini tashkil etish va rivojlantirish orqali amalga oshirish imkoni mavjud. [6].

Urbanizatsiya jarayoni 20-asrda boshlangan, bu tadqiqotning tahlilidan ko'rinib turibdi. Bu tendentsiya yaxshi maoshli ish o'rinlarining yo'qligi, yoshlarning kasbiy istiqbollari, ijtimoiy infratuzilmaning past darajada rivojlanganligi bilan izohlanadi, bu esa odamlarni shaharlarga yoki megapolislarga ko'chib o'tishga majbur qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida dehqonchilik va shaxsiy yordamchi tomorqalardan tushgan daromad bilan yashash qiyin.

Qishloqlarda aniqlangan muammolarni markaziy ittifoq tizimiga kiruvchi iste'mol jamiyatlari sifatida uy xo'jaliklari manfaatlarini birlashtirish orqali hal qilish mumkin.

Qishloq joylarda iste'mol kooperatsiyasining ahamiyati quyidagicha:

1. Bu aholining o'zini o'zi band etish shaklidir;
2. Odamlarni oziq-ovqat bilan ta'minlashda ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning manfaatlarini amalga oshiradi;
3. Kooperativ hamkorlik orqali shaxsiy fermer xo'jaliklarida bandlik va daromad olish masalalarida ijtimoiy funksiyalarni bajaradi. [7].

Qishloq aholi punktlari kooperativ tizimining faoliyat yuritishi qishloq taraqqiyotiga birinchi navbatda ta'sir ko'rsatadi. Kooperatsiya tizimining ijobiy ta'sirining yo'nalishlari qishloq joylarini rivojlantirishning barcha tarkibiy qismlarini va birinchi navbatda, ularning ijtimoiy sohasini rivojlantirishni qamrab oladi. Bunday ta'sirning samarasi pirovardida qishloq aholisining hayot sifatini oshirishda o'zini namoyon qiladi.

Qishloq xo'jaligining deyarli barcha ishlab chiqarish salohiyati (yer va mehnat resurslari, moddiy-texnikaviy hamda asosiy va ishchi ishlab chiqarish vositalari) bu kooperativda umumlashadi. [8].

Qishloq joylarda boshqaruvning turli tashkiliy-huquqiy shakllari mavjud, shu jumladan xo'jalik jamiyatlari (OAJ, YoAJ, MChJ), kooperativ tuzilmalari (qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish va iste'mol kooperativlari), davlat va munitsipal unitar korxonalar, dehqon (fermer), korxonalar va uy xo'jaligining boshqa turlari.

Ushbu xo'jalik yurituvchi subyektlar tegishli tuzilmalarni - xususiy tadbirkorlik, kooperativ, davlat, fermer xo'jaligi, shaxsiy va boshqalarni tashkil qiladi. Shu bilan birga, kooperativlar ma'lum turdagi tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatida qishloq aholisining hayoti va faoliyatiga eng mos keladi, chunki u kollektivizm, ixtiyoriylik tenglik, adolat, o'zaro manfaatdorlik va mas'uliyat tamoyillari asosida shakllanadi va ishlaydi. [9].

Hozirgi vaqtda davlat organlari tomonidan iste'mol kooperativlarining roli yetarlicha baholanmagan bo'lsa, xalqaro tajribani inobatga olgan holda kooperativ harakati qishloqlarni saqlash va rivojlantirishda harakatlantiruvchi omil hisoblanadi. Konsepsiyaning asosiy maqsadlaridan biri – aktsiyadorlar sonini ko'paytirish, bu esa qishloq aholisining bandligini oshirishdan iborat. Shuni nobatga olgan holda 2024-yil 30-sentabrda O'zbekiston Respublikasi "Qishloq xo'jalik kooperativi to'g'risida" gi Qonuni qabul qilindi. Qonun qishloq joylarining o'z ishlab chiqarish funksiyalarini

amalga oshirish, qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini oqilona taqsimlash va diversifikatsiya qilish, investitsiya loyihalarini amalga oshirish, yer munosabatlarini tartibga solish, oziq-ovqat bozorini mahalliy mahsulotlar bilan ta'minlashning yo'nalishlari, shakllari, usullari va vazifalarini belgilaydi. [10]. Qonunni ishlab chiqishdan asosiy maqsad qishloq aholisining hayot sifatini oshirishdan iborat bo'lib, bunga sog'liqni saqlash, ta'limni rivojlantirish, qulay uy-joy, energiya va suv ta'minoti, transport tarmocini, mobil aloqani rivojlantirish, va internet, madaniyat, sport, yashash muhiti va bandlikni rag'batlantirish, oziq-ovqat va uy-ro'zg'or buyumlari, shuningdek xizmatlarning jismoniy mavjudligini ta'minlash hisoblanadi. [11]. Qishloq aholi punktlari kooperativ tizimining qishloq joylarini kompleks rivojlantirishda faol ishtirok etishining asosiy yo'nalishlari, mazmuni, shakllari va usullari quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Qishloq aholi punktlarining kooperativ tizimining qishloq joylarini kompleks rivojlantirishda ishtirok etishining asosiy yo'nalishlari, shakllari va usullari

№	Ishtirok etish uchun ko'rsatmalar	Ishtirok etishning mazmuni, shakllari va usullari
1.	Qishloq aholi punktining xo'jalik yurituvchi subyektlarida ishlab chiqarish salohiyatidan (yer va mehnat, moddiy-texnika, asosiy va aylanma mablag'lar) optimal foydalanish.	Kooperativ tizimidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar tarkibiy bo'linmalarining biznes-rejalari asosida xo'jalik yuritishning joriy bozor sharoitlariga mos xo'jalik ichidagi hisob-kitobni ishlab chiqish va joriy etish hamda ularni amalga oshirish bo'yicha barcha bo'linmalar, shu jumladan rahbariyat o'rtasida hamkorlik shartnomasini tuzish;
2.	Davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish va kooperatsiya tizimini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash	Indikativ rejalashtirish: tadbirkorlik subyektlariga indikativ rejalarni yetkazish Kooperatsiya tizimidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarga subsidiyalar ajratish va boshqa shakllarda qo'llab-quvvatlash miqdorida ishlab chiqarish salohiyatidan optimal foydalanish bilan bir qatorda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ma'lum sur'atlarda olib borishni ta'minlash
3.	Kooperatsiya tizimidagi tadbirkorlik subyektlarining qishloqni obodonlashtirish loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtiroki: shinam uy-joy, sog'liqni saqlash, ta'lim, energiya va suv ta'minoti, transport tarmog'ini, mobil aloqa va internetni rivojlantirish, madaniyat, sport, bandlik, oziq-ovqat va uy-ro'zg'or buyumlarining jismoniy mavjudligi	Loyihalarning mazmuni va ularni asoslash bo'yicha takliflar Loyihalarni muhokama qilishda ishtirok etish, ularni qabul qilish va tasdiqlash, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish jamg'armasini va qishloq joylarda kooperativ savdo tarmog'ini shakllantirishda ularni amalga oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish. Qishloq joylarini rivojlantirishga qaratilgan ommaviy tadbirlarda - qishloq aholi punktlari kunlarida, mahallalar ish kunlarida va boshqa tadbirlarda ishtirok etish.

Qilingan tahlil natijalariga metodik asoslar, tuman va qishloq aholi punktlarining xususiyatlari, qishloq xo'jaligi va iste'mol kooperativlarining ayrim

shakllari va turlarining potensial a'zolari sifatidagi tadbirkorlik subyektlari, qishloq aholi punkti kooperativ tizimining tarkibi va, qishloq aholi punkti kooperativ tuzilmalarining qishloq hududini kompleks rivojlantirishda ishtirok etishining asosiy yo'nalishlari, shakllari va usullari) kooperativ turmush tarzi qishloq aholisi hayotida yetakchi o'rinni egallashi kerakligini ko'rsatmoqda. [12].

V. XULOSA

Qishloq hududlarida bandlikni oshirishda iste'mol kooperatsiyasining rolinining ahamiyatini oshirishda quyidagi yo'nalishlarda muammolar yechilishi lozim:

- iqtisodiyotning qishloq xo'jaligining zamonaviy kooperativ tizimini shakllantirish va qishloqlarni kompleks rivojlantirishning nazariy, uslubiy va konseptual asoslari;

- tashkiliy tuzilmalari va mexanizmlari samarali faoliyat ko'rsatish tizimi kooperativ iqtisodiyotning qishloq xo'jaligi sektori va qishloq joylarini kompleks rivojlantirish.

Shuningdek, kooperatsiya qishloq aholisining tadbirkorlik faolligini oshirish, daromadlarini ko'paytirish, migratsiya jarayonlarini sekinlashtirish, o'rta sinfni shakllantirish va kambag'allikni kamaytirishga xizmat qiladi. Kooperativlarning iqtisodiy inqirozlarga nisbatan chidamliligi esa ularni uzoq muddatli rivojlanish nuqtayi nazaridan yanada muhim qiladi. Demak, Yangi O'zbekiston sharoitida qishloq hududlarida bandlikni oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yumshatish va barqaror rivojlanishni ta'minlashda iste'mol kooperatsiyasini rivojlantirish strategik ahamiyatga ega. Ushbu tizimni qo'llab-quvvatlash qishloq joylarining kelgusi taraqqiyoti uchun muhim omil bo'lib qoladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. Aholi bandligini oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratishga oid chora-tadbirlar to'g'risida. 08.01.2019
2. Islomov A. O'zbekistonning mehnat resurslari. -T.: Toshkent iqtisodiyot universiteti nashriyoti, 2004.
3. Mumladze R.G., Guzhina G.N. Economics and sociology of labor. -Moscow: KNORUS, 2016
4. Salimov B.T. Mikroiqtisodiyot. Darslik. –Toshkent, 2021.
5. Alan, D.B. Migration Out of Rural Areas and Implications for Rural Livelihoods. Annu. Rev. Resour. Econ. 2019, 11, 461–481.
6. Ergashev R.X. Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti. Darslik. - T.: 2011
7. Dunyo aholisi sonini hisoblab boruvchi maxsus sayt-
<https://www.worldometers.info/world-population/>
8. Rahimboyev M.I. Qoraqalpog'iston Respublikasi mehnat bozori rivojlanish dinamikasining statistik iqtisodiy tahlili//Iqtisodiyot va ta'lim jurnali. 2-son. -Toshkent, 2024, -90-b.
9. Xolmo'minov Sh.R. qishloq mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishini modellashtirish// iqt. fan. dok. diss. –Toshkent, 1998-60 b.

10. Xomitov K.Z. Qishloq aholisini ish bilan ta'minlashning samarali ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari. Ijtimoiy boshqaruv jurnali 2023
11. Abdurahmonov Q. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyoti jamg'armasi nashryoti, TDIU, 2019. – 159 b
12. Sergeeva G.P., Chizhova L.S. Labor potential of the country. -Moscow:
13. Vrublevsky V.K. Developed socialism: labor and scientific and technological progress: Essays on the theory of labor. -Moscow, 1984.